



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 278 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari...	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	



Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish	196
Dusanov Shuxrat Abdiraakovich	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari	201
Qosimova Xolida Nabiyevna	
Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari	205
Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich	
Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish	209
Allanazarova Dilobar Baxromovna	
"Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar	213
Boboqulova Aziza Adizovna	
Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely	217
Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzruzkoda Javohir	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar	222
I. Matrasulova	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi	225
Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari	229
Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna	
Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari	232
Mashrapova Sevara Xabibovna	
Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients	237
Mukhsinov Sardor	
Pedagogikada metodlardan foydalanish	241
Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna	
Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari	245
Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna	
Talabalardagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi	249
Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi	
Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish	253
Abdullayev Sherzodbek	
Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language	256
Keldiyarova Shakhriyoz, Keldiyarova Mohlaroyim	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi	267
Yunusova Malika Miralimovna	
Культурные и исторические коды франции в автобиографической прозе марселя паньоля	270
Рахманкулова Дилафруз Азимовна	
Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования	274
Рахматова Нигина Исломовна	



“ALPOMISH” DOSTONIDA OBRAZLAR NUTQIDAGI PEDAGOGIK QARASHLAR

Boboqulova Aziza Adizovna

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: “Alpomish” dostoni o‘zbek xalq og‘zaki ijodining yirik namunalaridan biri bo‘lib, unda milliy tarbiya, axloqiy kamolot va insoniy fazilatlar obrazlar nutqi orqali chuqur ifodalangan. Mazkur tadqiqotda doston qahramonlari nutqida aks etgan pedagogik qarashlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada ota-onaga hurmat, vatanparvarlik, mardlik, sadoqat, sabr-toqat, do‘stlik va oilaviy qadriyatlar kabi tarbiyaviy g‘oyalarning obrazlar dialogi hamda monologlari orqali yoritilishi ochib beriladi. Shuningdek, Alpomish, Barchin, Qorajon va Boybo‘ri obrazlarining nutqiy xususiyatlari orqali yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiluvchi pedagogik tamoyillar aniqlanadi. Tadqiqot natijasida “Alpomish” dostoni xalq pedagogikasining muhim manbasi ekanligi hamda undagi obrazlar nutqi yoshlarni komil inson ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Alpomish, pedagogik qarashlar, xalq pedagogikasi, obrazlar nutqi, axloqiy tarbiya, epik tafakkur.

Abstract: The epic “Alpomish” is one of the greatest examples of Uzbek oral folk literature, in which the ideas of national upbringing, moral development, and human virtues are profoundly expressed through the speech of its characters. This study provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical views reflected in the dialogues and monologues of the epic’s characters. It examines educational values such as respect for parents, patriotism, bravery, loyalty, perseverance, friendship, and family values as conveyed through the characters’ speech. Furthermore, the linguistic and ideological characteristics of the characters Alpomish, Barchin, Qorajon, and Boybo‘ri are analyzed as important means of promoting the spiritual and moral education of the younger generation. The findings demonstrate that the epic “Alpomish” is an important source of folk pedagogy and that the speech of its characters plays a significant role in fostering a harmoniously developed individual.

Key words: Alpomish, pedagogical views, folk pedagogy, character speech, moral education, epic thinking.

Аннотация: Эпос “Алпомиш” является одним из крупнейших образцов узбекского устного народного творчества, в котором через речь персонажей глубоко отражены идеи национального воспитания, нравственного совершенствования и общечеловеческих ценностей. В данном исследовании с научно-теоретической точки зрения анализируются педагогические взгляды, выраженные в речи героев эпоса. Раскрывается воспитательное значение таких качеств, как уважение к родителям, патриотизм, мужество, верность, терпение, дружба и семейные ценности, представленных в диалогах и монологах персонажей. Особое внимание уделяется речевым особенностям образов Алпомиша, Барчин, Каражона и Байбури, посредством которых выявляются педагогические принципы, направленные на духовно-нравственное воспитание молодого поколения. По результатам исследования обосновывается, что эпос “Алпомиш” является важным источником народной педагогики и играет значительную роль в формировании гармонично развитой личности.

Ключевые слова: “Алпомиш”, педагогические взгляды, народная педагогика, речь персонажей, нравственное воспитание, эпическое мышление.

KIRISH

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng yirik va mukammal namunalaridan biri bo‘lgan “Alpomish” dostoni xalqning ko‘p asrlik tarixiy tajribasi, ma‘naviy qadriyatlari hamda tarbiyaviy qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan nodir badiiy yodgorlik hisoblanadi. Doston nafaqat epik tafakkur mahsuli sifatida, balki xalq pedagogikasining muhim manbasi sifatida ham ilmiy ahamiyat kasb etadi. Unda xalqning orzu-intilishlari, axloqiy me‘yorlari, ijtimoiy munosabatlari hamda komil inson tarbiyasiga oid qarashlari obrazlar faoliyati va, ayniqsa, ularning nutqi orqali badiiy ifoda etilgan. Bugungi globallashuv va ma‘naviy tahdidlar kuchayib borayotgan sharoitda yosh avlodni

milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan xalq dostonlaridagi pedagogik g'oyalarni o'rganish hamda ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, "Alpomish" dostonida qahramonlar nutqi orqali ifodalangan mardlik, vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, sadoqat, sabr-toqat, do'stlik va or-nomus kabi fazilatlar bugungi yoshlar tarbiyasida alohida ahamiyatga ega. Dostondagi obrazlar nutqi oddiy badiiy vosita bo'lib qolmay, xalqning ma'naviy-axloqiy tajribasini avloddan avlodga yetkazuvchi muhim pedagogik omil vazifasini ham bajaradi. Jumladan, Alpomish, Barchin, Boybo'ri, Qaldirg'och va Qorajon kabi obrazlarning nutqida xalqona donishmandlik, axloqiy pand-nasihatlilar, tarbiyaviy g'oyalar hamda insoniy fazilatlarini ulug'lash tamoyillari mujassamlashgan. Ularning dialog va monologlari orqali yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashga xizmat qiluvchi pedagogik qarashlar namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek folklorshunosligida "Alpomish" dostoni bo'yicha dastlabki ilmiy tadqiqotlar Hodi Zarif, Mansur Afzalov va To'ra Mirzayev kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ularning ilmiy qarashlarida dostonning xalq ruhiyati, milliy qadriyatlari hamda tarbiyaviy mohiyatini aks ettiruvchi jihatlari tahlil qilingan. Xususan, To'ra Mirzayev doston obrazlari nutqida jasorat, vatanparvarlik, or-nomus, oilaga sadoqat kabi axloqiy tushunchalar xalq pedagogikasining muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi. Folklorshunos olimning "Alpomish" dostoni: uning versiya va variantlari nomli maqolasida ushbu eposning qisqacha tarixi yoritilgan. Olimning ta'kidlashicha, doston asrlar davomida og'zaki tarzda kuylanib kelgan bo'lib, keyinchalik yozib olinib, ilmiy jihatdan o'rganila boshlangan. Unda vatanparvarlik, mardlik, sadoqat, oilaparvarlik va sabr-toqat kabi fazilatlar yorqin aks etgan.

Folklorshunos olim Malik Murodovning tadqiqotlarida "Alpomish" dostoni xalqning ijtimoiy-estetik tafakkuri mahsuli sifatida talqin qilinib, undagi obrazlar nutqi orqali yosh avlodni komillikka yetaklovchi g'oyalar ilgari surilgani qayd etiladi. Olim doston qahramonlari nutqida mardlik, sabr, fidoyilik va kattalarga hurmat kabi pedagogik tamoyillar mujassam ekanligini ko'rsatadi. Pedagog olimlarning ilmiy ishlarida esa xalq og'zaki ijodi namunalari tarbiyaviy imkoniyatlari keng yoritilgan. Jumladan, Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida milliy tarbiya masalalari xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi.

Olim xalq dostonlari yosh avlodni ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashning muhim vositasi ekanligini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda "Alpomish" dostoni kompetensiyaviy yondashuv asosida ham tahlil qilinmoqda. Tadqiqotchilar obrazlar nutqida kommunikativ madaniyat, ijtimoiy munosabatlar, oilaviy tarbiya hamda shaxs kamolotiga oid qarashlarning mavjudligini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilganlar. Masalan, yosh tadqiqotchi Husanjon Otamurodov mazkur dostonni milliy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim vosita sifatida ko'rib chiqqan. Uning maqolasida "Alpomish" dostoni orqali yoshlarda jasorat, mardlik va fidoyilik tuyg'ularini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Shuningdek, dostonni zamonaviy pedagogik jarayonga integratsiya qilish yo'llari ham ko'rsatib berilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda "Alpomish" dostoni obrazlari nutqining aynan pedagogik jihatdan kompleks va tizimli o'rganilishi yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, obrazlar dialoglari va monologlarida ifodalangan tarbiyaviy g'oyalarning zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi alohida ilmiy yondashuvni talab etadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavzusi dolzarb ilmiy muammo sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi ilmiy ishlardan farqli ravishda ushbu tadqiqotda aynan obrazlar nutqida ifodalangan pedagogik qarashlar tahliliga asosiy e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda "Alpomish" dostonidagi obrazlar nutqida aks etgan pedagogik qarashlarni aniqlash va tahlil qilish maqsadida qiyosiy-tahliliy, tavsifiy hamda germenevtik metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida "Alpomish" dostoni matni tanlanib, undagi Alpomish, Barchin, Boybo'ri, Qaldirg'och, Qorajon va boshqa obrazlarning dialog hamda monologlari o'rganildi. Tahlil jarayonida obrazlar nutqida ifodalangan axloqiy-tarbiyaviy g'oyalar, jumladan, vatanparvarlik, mardlik, sadoqat, ota-onaga hurmat, saxiylik, sabr-toqat va oilaviy qadriyatlar mazmuniga ko'ra guruhlariga ajratildi. Shuningdek, nutqiy birliklarning pedagogik funksiyasi va tarbiyaviy ahamiyati xalq pedagogikasi hamda zamonaviy pedagogika nazariyalari asosida izohlandi.

Tadqiqot davomida folklorshunoslik va pedagogika sohasidagi ilmiy adabiyotlar o'rganilib, ulardagi nazariy qarashlar doston matnida ifodalangan pedagogik g'oyalar bilan o'zaro qiyoslandi. Olingan natijalar umumlashtirish va ilmiy xulosalash metodlari asosida tizimlashtirildi. Natijada "Alpomish" dostoni obrazlari nutqining yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashdagi pedagogik imkoniyatlari aniqlandi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi "Alpomish" dostonidagi obrazlar nutqida aks etgan pedagogik qarashlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning tarbiyaviy mohiyati hamda xalq pedagogikasidagi o'rnini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida



dostondagi nutqiy birliklarning ma'naviy-axloqiy mazmuni, pedagogik funksiyasi va badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, dostonning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati hamda milliy pedagogik tafakkur taraqqiyotidagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Alpomish” dostonidagi obrazlar nutqida jasorat, vatanparvarlik, mardlik va adolat kabi fazilatlar yetakchi o'rin egallaydi. Doston qahramonlarining so'zlari yoshlarni qat'iyatli bo'lishga, el-yurt manfaatlarini himoya qilishga undaydi. Xususan, asarda otaning nutqi alohida e'tiborga loyiq: “Endi, o'g'lim savodi chiqib mulla bo'ldi, o'g'limga shohlik, sipohlik ilmini o'rgatayin”, – deb uni mulladan chiqarib oldi. Bu o'rinda otaning o'g'lini ilmiy va har tomonlama yetuk inson etib tarbiyalash uchun astoydil harakat qilayotgani namoyon bo'ladi. Yana bir e'tiborli jihat shundaki, ota farzandini nafaqat ilm olishga rag'batlantiradi, balki zarur paytda savol-javob orqali uning bilim va tafakkurini ham sinovdan o'tkazadi. Dostondagi kuchli pedagogik g'oyalardan biri Boybo'ri va Hakimbek o'rtasidagi suhbatda namoyon bo'ladi: “Kunlardan bir kun Hakimbek kitob o'qib o'tirgan ekan. Baxillik va saxiylik haqida gap chiqib qoldi. Boybo'ribiy shunda Alpomishdan: – Kishi nimadan baxil bo'ladi, nimadan saxiy bo'ladi? – deb so'radi. Unda o'g'il turib aytdi: “Vaqti-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, ko'nglini xushlab yuborsa, bu ham saxiy; agar joyi bor bo'la turib, joy yo'q deb qoldirmay jo'natsa, bu odam baxil. Bevaqt kishi bir mozorotning qabatidan o'tsa, chap oyog'ini uzatib odamlarning haqiga duo qilsa, bu ham saxiy; chap oyog'ini uzatmay, odamlarning haqiga duo qilmasa, bu odam baxil. Kishining moliga zakot yetsa, zakot bersa, bu ham saxiy; agar zakot bermasa, bu odam baxil”.

Ushbu lavhada Boybo'ribiyning farzandiga savol berib, uning fikrlash qobiliyatini sinashi, Hakimbek (Alpomish)ning esa saxiylik va baxillik mezonlarini hayotiy misollar orqali izohlab berishi pedagogik nuqtayi nazardan alohida ahamiyatga ega. Otaning savoli orqali farzandda mustaqil fikrlash, axloqiy mezonlarni anglash hamda o'z fikrini asoslab berish ko'nikmasi shakllantiriladi. Alpomishning javobida saxiylik mehmondostlik, mehr-oqibat, o'zgarlar haqiga duo qilish va zakot berish kabi ezgu fazilatlar bilan, baxillik esa beparvolik hamda xudbinlik bilan bog'lab tushuntiriladi. Bu esa yosh avlodga saxiylikni ulug'lash va baxillikdan saqlanish g'oyasini singdiruvchi muhim tarbiyaviy o'git hisoblanadi.

Demak, dialog shaklidagi ushbu suhbat oilada savol-javob va o'zaro muloqot orqali axloqiy tarbiya berishning yorqin namunasi hisoblanadi. Dostonda momolarning nabiralarga beradigan pand-nasihatlari ham xalq pedagogikasining muhim qirralaridan biridir. Jumladan, Barchin og'ir damlarda momosidan ruhiy madad va o'git oladi: “Ana endi Barchinoyning enasi Barchinoydan eshitib, Barchinoyga tasalli berib, nasihat aytib, Barchinni to'g'ri yo'lga boshlaydi: Boy otam-man, biy bobom-a ne bo'ldi?”

Nasihat qilmapsan, ena, mushtipar...”⁴ Bu o'rinda asosiy g'oya momolarning farzand va nabiralarga beradigan pand-u nasihatlaridir. Asarda ham Barchinning momosi unga o'git berib, to'g'ri yo'lga boshlaydi. Bu esa avlodlar o'rtasidagi ma'naviy ko'prikn, ya'ni katta avlod vakillarining hayotiy tajribasini yosh avlodga yetkazish an'anasini aks ettiradi. Dostonda o'zbek qizlariga xos yana bir muhim fazilat, ya'ni “Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat” tamoyili yorqin ifodalangan: “Barchin qirchin kanizaklari bilan o'tirib edi; bu kampirni ko'rib, qanday bo'lsa ham musofir yurtda kampirni hurmat qilib, o'rnidan turib, ta'zim qilib o'tirdi.” Asarda Qaldirg'och singil sifatida akasi Bekka to'g'ri maslahat beradi, mehribon singil sifatida unga qat'iyat va jur'at bag'ishlaydi:

*Mard yigitning yori talash bo'larmi,
 Er yigitning yorin qalmoq olarmi,
 Barchin checham talash bo'lib qolarmi,
 Senday beklar bu bexabar turarmi?*

Bu misralarda Qaldirg'ochning akasining g'ururini o'z g'ururiday bilishi, unga o'rinli eslatma berishi hamda erkak kishi uchun yor masalasi nafaqat muhabbat, balki or-nomus masalasi ekanligini ta'kidlashi namoyon bo'ladi. Qizlarning ota-onaga hurmati va roziligini ulug'lash g'oyasi Barchin nutqida ham yaqqol ifodalangan:

*Sen yig'lading, ota, ko'nglim buzildi,
 Diyda giryon bo'lib, bag'rim ezildi,
 Xafa qilma, ota, menday qizingni,
 Qo'ya ber alplarga mening o'zimni.*

Bu misralarda Barchinning farzandlik burchini chuqur his etishi, otasining tinchligi va sha'nini o'ylashi yorqin namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ular Barchinning alp qiz sifatidagi jasorati, kuch-g'ayrati va aql-zakovati tufayli ko'plab muammolarni mustaqil hal qila olishini ham ko'rsatadi. Alpomish obrazi o'zbek yigitlari uchun jasorat timsoli hisoblanadi. U o'z yori uchun fidoyilik ko'rsatadi:

*Bobo, sir-u holim ma'lum qilayin,
Sizdan endi bir bedovni so'rayin,
Bedov minib qalmoq elga borayin,
Qalmoq eldan yorim olib kelayin.*

Alpomish obrazi orqali doston yoshlarni yurtni sevishga, uni himoya qilishga, mard, jasur va qo'rqmas bo'lishga undaydi. Bu xalq pedagogikasining muhim tamoyillaridan biridir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Alpomish" dostonidagi har bir obraz nutqi muayyan pedagogik g'oyani o'zida mujassam etadi. Alpomish obrazi nutqida jasorat, vatanparvarlik, mardlik va sadoqat kabi fazilatlar yetakchilik qiladi. Barchin obrazi nutqida esa sadoqat, sabr-toqat, hayo va donolik kabi insoniy fazilatlar yorqin aks etgan. Bu o'zbek xalqining ayol idealiga oid qarashlarini namoyon etadi. Boybo'ri obrazi nutqida ota tarbiyasi, farzandni ilm-ma'rifatga yo'naltirish hamda savol-javob orqali fikrlashga o'rgatish tamoyillari ifodalangan. Qaldirg'och obrazi nutqida esa or-nomus, oilaviy sadoqat, aka-singil munosabatlaridagi mehr-oqibat va qat'iyatli maslahat berish fazilatlarini aks etgan. Momo obrazi orqali esa avlodlararo ma'naviy aloqa, ya'ni keksalarning hayotiy tajribasi va pand-nasihatlarini yosh avlodga yetkazish an'anasi o'z ifodasini topadi. Shunday qilib, doston obrazlarining nutqi oilaviy tarbiya, axloqiy kamolot va milliy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan yaxlit pedagogik tizimni tashkil etadi.

XULOSA

"Alpomish" dostoni o'zbek xalq pedagogikasining boy va sermazmun manbalaridan biridir. Dostondagi obrazlar nutqida ifodalangan mardlik, vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, sadoqat, sabr-toqat, saxiylik, or-nomus va do'stlik kabi fazilatlar bugungi kunda ham yosh avlodni komil inson ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Obrazlarning dialog va monoglari shunchaki badiiy vosita bo'lib qolmay, balki xalqning ko'p asrlik ma'naviy-axloqiy tajribasini avloddan avlodga yetkazuvchi muhim tarbiyaviy omil vazifasini bajaradi. Tadqiqot natijasida "Alpomish" dostonidagi obrazlar nutqi xalq pedagogikasining muhim tarkibiy qismi ekanligi, undagi tarbiyaviy g'oyalar zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida samarali qo'llanish imkoniyatiga ega ekanligi asoslandi. Dostondagi pedagogik qarashlarni o'rganish va ulardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish yoshlarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alpomish. – Toshkent: Zukko kitobxon, 2025.
2. Axmedjonov A. O'zbek xalq dostonlarining badiiy tahlili. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Eshmurodov Z. Xalq og'zaki ijodidan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda foydalanish. – Toshkent: Fan va ta'lim, 2021.
4. Mirzayev T. "Alpomish" dostoni: uning versiya va variantlari. – Toshkent.
5. Mirzayev T., Eshonqul J., Fidokor S. "Alpomish" dostonining izohli lug'ati. – Toshkent: Elmis-Press-Media, 2007.
6. Mirzayeva N. Tarbiya nazariyasi va usullari. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2019.
7. Otamurodov X. Q. "Alpomish" dostoni orqali yigitlarda mardlik va vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalash. "Ilm-fan yangiliklari" konferensiyasi materiallari. – Andijon, 2026.
8. Qodirov B. Milliy tarbiya va og'zaki ijod. – Samarqand: Ma'rifat, 2015.
9. Tursunova L. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash. – Buxoro: Ilmiy meros, 2017.
10. Hakimov R. O'zbek dostonlarining pedagogik imkoniyatlari. // Pedagogik tadqiqotlar. – 2022. – № 3. – B. 45-58.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.